



Learning and Sustainable Innovation

O‘ZBEKISTONDA TA’LIMNING RIVOJLANISHI

Jonuzoqov Ma’murjon Isobek o‘g‘li

Samarqand davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda ta’limning sifatini oshirish uchun olib borilgan bir qancha islohotlar hamda ularning natijalari haqida bilib olamiz. Shuningdek ta’limning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati haqida gaplashamiz. Yana ta’limning tarbiyaviy funksiyasi haqida ham fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, ta’lim, islohot, jamiyat, natija, texnologiya

РАЗВИТИЕ ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Жонузочков Мамуржон Исобек оғли

Студент 1-го курса магистратуры Самаркандского государственного педагогического института.

Аннотация: В данной статье мы рассмотрим ряд реформ, реализуемых в Узбекистане с целью повышения качества образования, и их результаты. Мы также поговорим о важности образования в развитии общества. Также были высказаны мнения об образовательной функции образования.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, образование, реформа, общество, результат, технология

DEVELOPMENT OF EDUCATION IN UZBEKISTAN

Jonuzokov Mamurjon Isobek o'g'li

1st year master's student of Samarkand State Pedagogical Institute

Annotation: In this article, we will learn about several reforms carried out to improve the quality of education in Uzbekistan and their results. We will also talk about the importance of education in the development of society. Opinions have also been expressed about the educational function of education.

Keywords: New Uzbekistan, education, reform, society, result, technology.

Ta’lim —insoniyat jamiyatining asosiy ustunlaridan biri bo‘lib, sivilizatsiyaning har bir bosqichida uning madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini belgilab beruvchi hal qiluvchi omil bo‘lib kelgan. Ta’lim tizimi ming yillar davomida uzluksiz ravishda o‘zgarib, takomillashib, jamiyat ehtiyojlariga moslashib borgan. Agar ibtidoiy jamoa davrida ta’lim tabiatga va jamoaviy hayotga moslashish uchun zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalarni (ovchilik, o‘simliklarni yig‘ish) otadan bolaga yoki tajribali shaxsdan



yoshga uzatish shaklida bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik qadimgi sivilizatsiyalarda (Misr, Mesopotamiya, Qadimgi Yunoniston) yozuv paydo bo‘lishi bilan ibodatxonalar va saroylarda diniy, siyosiy va matematik bilimlarni uzatuvchi muntazam maktablar shakllangan. O‘rta asrlarda ta‘lim diniy markazlar –monastirlar va madrasalar atrofida to‘plangan, ilmiy fikr esa asosan teologiya ta‘siri ostida bo‘lgan. Uyg‘onish davridan boshlab universitetlar ilmiy va madaniy markazlarga aylandi, ta‘lim mazmunida dunyoviy fanlar va gumanitar bilimlar ustuvorlik qila boshladi¹. Har bir mamlakat rivojida ta‘lim sifatini oshirish muhim ahamiyatga ega, zero ta‘limda rivojlanish bo‘lsa har bir sohada rivojlanish bo‘ladi. Uzlüksiz ta‘lim tizimida ta‘lim jarayoni ishtirokchilari ehtiyojlari, shuningdek, fan, ta‘lim, ishlab chiqarish ehtiyojlaridan kelib chiqib, raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlashda uzlüksiz ta‘lim tizimining asosiy komponentlari hisoblangan maktabgacha ta‘lim, umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi, oliy ta‘lim, oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim, maktabdan tashqari ta‘lim hamda qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining integrativ tabiatiga mos ta‘lim jarayonlari samaradorligini oshiruvchi texnologiyalarni tanlash, hamda pedagogik jarayonlarda vujudga kelayotgan muammolarni o‘rganish va ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunning eng asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda ta‘lim sohasida turli xil va keng istiqbolli yangiliklar kiritilmoqda. Xalq ta‘limi tizimi ta‘lim sohasining asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Maktab ta‘lim tizimi uzoq muddatli jarayon bo‘lganligi sababli ham bunda har bir farzand harf tanishidan toki kasb tanlash jarayonigacha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 30-oktabr kuni videoselektor tashkil etilgan videoselektor yig‘ilishida ta‘lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo‘lib o‘tdi va bu videoselektorda muallimning obro‘-e‘tiborini va maqomini ko‘tarish, o‘quv dasturlari va metodikasini to‘liq qayta ko‘rib chiqish, maktab ta‘lim tizimini keyingi bosqichlar bilan uzviy bog‘liqligini taminlash, o‘qituvchilarning ortiqcha qog‘ozbozlikdan xalos etib, o‘z ustida ishlash uchun shart-sharoitlarni yaratish, maktablarning moddiy texnik bazasini yangilash va ta‘minlash masalalari alohida ko‘rib chiqildi². O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son

¹ Toliqulov, U. T.—Pedagogika nazariyasi va tarixi—Toshkent: Turon-Iqbol, 2018, 98-105-betlar. (Ta‘limning tarixiy bosqichlari nazariy tahlili).

² Nurmatova Maftuna Ixamovna. (2022). ZAMONAVIY TA‘LIMDA IQTISODIY FANLARNI O‘QITISH USULLARI TAHLILI. E Conference Zone, 79–81. Retrieved from <http://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/1831>



Farmoni ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan chora tadbirlar xalq ta'limi tizimida turli ehtiyojga ega bo'lgan bolalarga qaratilgan muassasalar — o'qitish darajasi ta'lim standartlaridan yuqori bo'lgan muassasalar (ixtisoslashtirilgan muassasalar) va imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim muassasalari faoliyat yuritadi, xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan PISA (The Programme for International Student Assessment) umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish va boshqa islohotlar ko'zda tutilmoqda³. Hozirgi vaqtda Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarning asl mohiyati –milliy qadriyatlarining ustuvorligini ta'minlash emas, balki, jahon ilmfani hamda ta'lim tizimi sohasida erishilgan ulkan yutuqlar va milliy o'zlikni anglash asosida, yangi davr rivojlanish taraqqiyotini asoslab beradigan ta'lim tizimini yaratishdan iborat. Bu borada, falsafani o'qitish va yoshlarda falsafiy tafakkurni yuksaltirish muammosini yangicha paradigmalarda asosida hal etish zarurati yuzaga keladi. Shu bois, asrlar davomida jahon falsafasi, xususan milliy falsafiy qadriyatlar asosida yoshlarda falsafiy mushohada, tafakkur etish ko'nikmalarini shakllantirishni uzluksiz ta'lim tizimiga kiritish, nazarimizda, milliy mentalitetimizning milliy g'oya asosida yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ta'lim falsafasi va falsafiy ta'limni rivojlantirishda Sharq allomalarining fundamental asarlarini ilmiy o'rganish muhim ahamiyatga ega⁴. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "ta'lim sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish, ta'lim xizmatlarining mavjudligi va samaradorligini oshirish" va "zarur bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olish va kadrlar malakasini oshirish ishlarini keng ko'lamda yo'lga qo'yish" kabi ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlashda ta'lim oluvchilarda yaxlit va tizimli integrativ bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va baholash muhim o'rin tutadi⁵. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritishi bilanoq avvalo ta'lim tizimini isloh qilishga bor e'tborini qaratdi, yoshlarni ilm-fanga qiziqtirib ularni bu boradagi loyihalarini

³ Нурматова, Мафтуна. "Оила иқтисоди ва уни юритишга оид компетенциялар." Общество и инновации 2.11/S (2021): 323-329.

⁴ Мухтаров, Уткиржон Муталибжанович. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИ ДАШАРҚРЕНЕССАНСИ ДАВРИ АЛЛОМАЛАР ИНИНГИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ МЕРОС ИНИНГҲҲРНИ // ORIENSS. 2022. No Special Issue 23. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-zbekiston-tara-iyotida-shar-renessansi-davri-allomalarining-ilmiy-falsafiy-merosining-rni> (дата обращения: 16.03.2023).

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ4947-сонли "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2017. – Б.39.



Learning and Sustainable Innovation

qo'llab quvvatladi. Bunga misol 1992-yilda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilinganligi taqsiinga sazovordir. Endigina mustaqillikni qo'lga kiritgan yosh O'zbekiston uchun bu qaltis qadam bo'ldi desak adashmagan bo'lar edik. Davlat ramzlari qatorida bu qonunning qabul qilinishi endigina mustaqil bo'lgan O'zbekistonni ta'limga bo'lgan dadil qadami va shijoatini ko'rsatib berdi. Ta'lim olish huquqi insonning asosiy huquqlaridan biridir. Ta'lim O'zbekiston Respublikasida jamiyatni iqtisodiy-ijtimoiy, ma'naviy va madaniy rivojlanishi uchun ustuvor sohasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasidagi davlat siyosatini, umuminsoniy qadriyatlar, xalqning tarixiy tajribasini, madaniy va fan bobidagi an'alarini jamiyatning istiqbolidagi rivojini hisobga olgan holda yurg'izadi. Asosiy maqsadi esa barkamol avlodni tarbiyalash hisoblanadi.[O'zbekiston Respublikasi qonuni 02.07.1992-yil 636-XII son.]⁶. Bugungi kunda mamlakatimizda tizimli va izchil ravishda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar o'z natijasini ko'rsatmoqda, universitetlarimiz akademik va moliyaviy mustaqilikka erishdi, o'zining maqsad va vazifalarini belgilab, zamon talablariga moslashish hamda bugungi kun va kelajak uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatiga egadir. Amalga oshirilayotgan islohotlarning shu asnoda davom ettirilishi, ta'lim tashkilotlari tomonidan qabul qilingan qonun va qonunosti hujjatlarning hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ko'rsatib o'tilgan oliy ta'lim tizimidagi ustuvor vazifalar ijrosi sifatli ta'minlanishi mamlakatimizda ta'limning yuqori cho'qqilarga chiqishiga va eng asosiysi yoshlarimiz xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo'la oladigan yuqori malakali kadr bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Ta'lim zamonaviy jamiyatning ajralmas qismidir. Insoniyatning rivojlanishi va taraqqiyoti bevosita insoniyat jamiyatini oldinga siljitgan bilimli odamlarga bog'liq bo'lishi mumkin. Ta'limga investitsiya qilish jamiyat oldida turgan global isish va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi asosiy muammolar haqida xabardorlikni oshiradi. Bu narsalar hayot sifatiga bevosita ta'sir qiladi va ularni o'z bilimlari bilan dunyoni o'zgartirishga tayyor bo'lgan shuhratparast, ijodiy va aqlli odamlarsiz hal qilib bo'lmaydi. Shu sababli ta'limga jiddiy yondashish nafaqat shaxs uchun muhim qaror, balki ijtimoiy mas'uliyatli xulq-atvor hamdir. Har bir inson dunyoni o'zgartirish qudratiga ega, yaxshi yondashuv, sifatli ta'lim, mehnatsevarlik, innovatsiya va ijodkorlik bilan jamiyat ishonchli qo'llarda qolishiga amin bo'lishimiz mumkin⁷.

⁶ <https://econferences.ru/index.php/tafps/article/download/14343/7350/7467>

⁷ <https://www.allisonacademy.com/students/education/higher-education/importance-of-education-in-society/>



Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017. – B.39.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni
3. Nurmatova Maftuna Ilxamovna. (2022). Zamonaviy ta’limda iqtisodiy fanlarni o‘qitish usullari tahlili
4. Toliqulov, U. T.—Pedagogika nazariyasi va tarixi—Toshkent: Turon-Iqbol, 2018, 98-105-betlar. (Ta’limning tarixiy bosqichlari nazariy tahlili).
5. <https://www.allisonacademy.com/students/education/higher-education/importance-of-education-in-society/>